



Zamaxshariyning o‘rinbosari

Turg‘unov Abdulatif

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti 4-kurs talabasi

turgunovabdulatif76@gmail.com

Annotatsiya: Arab tili grammatikasi qoidalarini tartiblab chiqqan olim hamyurtimiz deganda beixtiyor ko‘z oldimizga Imom Zamaxshariy keladi, lekin arab tili qoidalari bo‘yicha kitob yozgan yana bir olim ajdodimiz bor. U Mutarriziy nomi bilan tanilgan mashhur olim Abul Fath Mutarriziy. U o‘z asrining nahv va adabiyot olimlaridan bo‘lgan. Mutarriziy – “Sadru-l-afozil” (fozillar sardori) nomi bilan mashhur bo‘lgan.

Kalit so‘zlar: Arab tili, grammatika qoidalari, Fiqh, nahv va lug‘at, adabiyot, fors tili, morfologiya, sintaksis, olim, Mutarriziy, Xorazmiy, Zamaxshariy, zardo‘z, Misbah asari.

Olimning to‘liq ismi Abul Fath Burhoniddin Nosir ibn Abul Makorim Abdusayyid Mutarriziy Xorazmiy. Mutarriziy uning nisbati bo‘lib, “mutarriz” matolarga bezak (gullar, naqshlar) beruvchi va unga yozuvchi kishiga aytiladi. Ibn Xallikon shunday deydi: “Bu ish bilan uning o‘zi shug‘ullanganmi yoki ota-bobosimi, bunisi menga ma’lum emas, lekin unga nisbat berilgan”. Imom Suyutiy esa “Ota tomondan katta buvasi zardo‘z bo‘lgan”, – deb yozadi.



Mutarriziy hijriy 538-yilda (mil. 1143-y.) Xorazm davlatining poytaxti Jurjoniyya¹ tugʻilgan. Unga “Xalifatu Zamaxshariy” – “Zamaxshariyning oʻrinbosari” laqabi berilgan. Chunki u Zamaxshariy vafot etgan yili oʻsha joyda dunyoga kelgan va Zamaxshariyga oʻxshab arab tili olimlaridan boʻlgan.

Mutarriziy birinchi tahsilni Xorazmda oʻz otasidan, Xorazm xatibi Ali Abu Muhyiddin al-Muvaffaq ibn Ahmad Makkiy va boshqalardan olgan. Hadislarni Abu Abdulloh Muhammad ibn Abu Saʼd Tojirdan tinglagan, u esa hanafiy faqihlaridan edi. U ilm talabida biror joyga hijrat qilib chiqmagan. Fiqh, nahv va lugʻat darslariga alohida eʼtibor qaratgan. Bundan tashqari fors tilidagi olimlarning asarlarini koʻp oʻqigan va u tilda ham ijod qilgan.

Mutarriziy hijriy 601-yil (mil. 1204-y.) hajga ketayotganida Bagʻdodga kiradi. U yerda faqih va adiblar jamoasi bilan koʻrishadi va ular Mutarriziydan fiqh va adabiyot ilmi boʻyicha bilim oladilar.

Mutarriziy nahv, lugʻat va adabga oid bir qancha asarlar qoldirgan. Ulardan baʼzilari:

1. Misbah fin-nahv.
2. Izoh fi sharh maqomatil-Haririy.
3. Iqnauʼ lima hava tahtal qonaʼ
4. Muʼrib
5. Mugʻrib fi tartibil muʼrib.
6. Zahrotur robeʼ fi ilmil badeʼ
7. Bayanul ijazu fi suroti qul ya ayyuhal kafirun.

¹ forscha Gurganch hozirgi Urganch shahri.



Mutarriziyning «Misbah» asari ikki bobdan iborat qisqa grammatik risola bo‘lib, olim unda boshqa risolalarda uchramagan asl usulni qo‘llagan.

Birinchi bobda nahv qoidalarini Mahmud Zamaxshariy ijod qilgan “ism-fe‘l-harf” usuliga ko‘ra bayon qilgan, ya’ni arab tilining barcha qoidalari so‘z turkumlari orqali tushuntirilgan.

Ikkinchi bobda esa, arab nahvi an’anaviy usulda, ya’ni morfologiya va sintaksisga ajratib taqdim etilgan. Mahoratli olim bir asarda arab tili grammatikasini bayon qilishning har ikki usulini qo‘llagan. Bu risola juda mashhur bo‘lib ketgan. Uzoq vaqt madrasalarning asosiy darsligiga aylangan. Shorihlar bu risolaga alohida e’tibor qaratishgan hattoki unga 40 ga yaqin mashhur sharhlar yozilgan

Mutarriziy hijriy 610-yil (mil. 1213-y.) Xorazmda vafot etgan. Alloma o‘zidan keyin 300 dan ortiq arab va fors tilidagi qasidalarini meros qilib qoldirgan.

Foydanilgan adabiyotlar:

1. S. Rustamiy, M. Nosirova, A. Akmalxonov mutaxassislikning nazariy masalalari darslik. lingvistika mutaxassisligida (5A120102 – Lingvistika (arab tili) – Toshkent: 2021. 245 b.
2. Abu Ya’qub Yusuf ibn Abu Bakr ibn Mahammad Sakkokiy. Miftahu-l-ulum. Anqara Milli Kütüphanesi. Qo‘lyozma 26 Hk 192 raqam. – 244 v.
3. Rustamova S. Arab tili fonetikasi. – T.: 2000.
4. <https://ar.wikipedia.org/wiki/مطرزي>